



UDK: 116:404.007.4(0017)

**Zohid BOYMURODOV,**  
Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: zohidboyurodov26@gmail.com

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori B.Omonov taqrizi asosida*

#### **TURMUSH TARZI KATEGORIYASINING TARKIBIY-FUNKSIONAL TAHLILI: MAZMUNI VA MOHIYATI**

Аннотация

Maqolada turmush tarzi kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili keltirilgan bo'lib, uning tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik munosabati tahlil qilingan. Turmush tarzidagi o'zgarishlar va ularning sabab va oqibatlar bilan bog'liq fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** turmush tarzi, maishiy turmush, milliy madaniyat, milliy turmush tarzi, bo'sh vaqt, ijtimoiy ishtirok, ijtimoiy guru, sinflar diffuziyasi.

#### **СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ ОБРАЗА ЖИЗНИ: СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ**

Аннотация

В статье представлен социально-философский анализ категории образа жизни с анализом ее составляющих и взаимосвязи между ними. Приведены отзывы об изменениях образа жизни и их причинах и последствиях.

**Ключевые слова:** образ жизни, домашняя жизнь, национальная культура, национальный образ жизни, досуг, социальное участие, социальный гуру, распространение классов.

#### **STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF THE LIFESTYLE CATEGORY: CONTENT AND ESSENCE**

Annotation

The article presents a socio-philosophical analysis of the category of lifestyle, analyzing its components and the relationship of interaction between them. Feedback related to lifestyle changes and their cause and effect has been cited.

**Key words:** lifestyle, household life, National Culture, National lifestyle, leisure, social participation, social guru, class diffusion.

**Kirish.** Dunyo jadal o'zgarib bormoqda. XXI asrning dastlabki choragiga kelib, jahonda yangi iqtisodiy voqelik qaror topdi, iqtisodiy obyektlar o'rtasidagi aloqalar turbulent tus oldi. Zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy hayot ham tubdan yangilanmoqda: ijtimoiy-stratifikatsion transformatsiyalar, ijtimoiy guruh va sinflar diffuziyasi shundan darak beradi. "Siyosiy sohada davlat instituti evolyutsiyasi yuz berdi, unga muqobil vazifasini o'taydigan uyushmalar (korporatsiya-davlatlar) shakllandi, davlat funksiyalarini bajaruvchi mintaqaviy birlashmalar paydo bo'ldi" [1]. Sotsium ma'naviy makoni fenomenlarida ham salmoqli evrilishlar kuzatilmoqda.

O'zgarishlar shaxti O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'q. Dunyo maydonidagi yangilanishlardan tashqari mamlakatda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar jamiyat qiyofasiga o'zgacha shakl baxsh etdi. Keyingi yillarda Iqtisodiyotni zamonaviylashgani, ijtimoiy soha elementlarini o'zgartirayotgani, jamiyat siyosiy borlig'ini takomillashtirgani, ma'naviy-madaniy hayotiga yangi mazmun berayotgani Yangi O'zbekiston strategiyasi doirasida ro'yobga chiqarilayotgan choralar natijasi ekanligiga guvoh bo'lmoqdamiz.

**Muhokama va natijalar:** Voqelikning oddiy kuzatilishi va kundalik ong darajasidagi umumlashmalarning o'zidanoq ma'lum bo'ladiki, jahon sahnida va mamlakat miqyosida ro'y berayotgan o'zgarishlar inson ongi va faoliyati, turmush tarzi uchun izsiz ketayotgani yo'q. Ammo, bugungi kunda zamonaviy ijtimoiy voqelikning inson hayoti va turmushiga ko'rsatayotgan ta'siri va uning oqibatlarini kundalik ong darajasida, aniqlab va umumlashtirib bo'lmaydi. Muammo nazariy talqin qilinmas ekan, uning tadqiqida ijtimoiy falsafa va mantiqning ilmiy uslublariga tayanilmas ekan, masalaning mohiyatini ilg'ab, asosli ilmiy xulosalar va ahamiyatli tavsiyalarni ilgari surib bo'lmaydi. Mavzuga doir

ilmiy izlanishlarning dolzarbligi va ijtimoiy ahamiyati ham shunda.

Turmush tarzi – individ yoki jamoa hayoti hamda faoliyatining aniq, muayyan shaklini ifodalashda qo'llaniladigan tushunchadir. Lekin tushuncha mazmuni inson hayotining turli jabhalari ifodasi bilan cheklanmaydi. Shuningdek, unda shaxs xulqining xossalari, uning o'zga kishilar bilan munosabatlari xarakteri ham mujassam bo'ladi. Shaxs turmush tarzi alohida individ hayotiga xos bo'lgan jihatlarni, guruh yoki tabaqa turmush tarzi esa mazkur kishilar birligiga xos umumiy jihatlarni ilg'ash imkonini beradi.

Mavzuga doir ilmiy manbalardan ko'rinadiki, [2]. Har qanday turmush tarzi qator parametrlarni o'z ichiga oladi. Bu parametrlar inson hayotiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqadi. Masalan, hayotiy faoliyatning eng muhim yo'nalishi mehnat faoliyati bilan bog'liq.

Mehnat faoliyati o'z ijtimoiy xarakteriga ko'ra xususiy, yollanma va individual mehnatga tasniflanadi. Xususiy mehnat bilan mashg'ul kishilarning turmushi bir tarzda, yollanma mehnatga jalb qilingan fuqarolarning turmushi boshqa tarzda, individual mehnat bilan shug'ullanayotgan jamiyat a'zosining turmushi uchinchi tarzda o'tadi.

Publitsistik adabiyotlarda, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan maqolalarda "jamiyat ishlaridagi ishtirok" iborasi turli mazmunda va ehtiyotsizlik bilan qo'llaniladi. Aslida bu to'g'ri emas. Jahon falsafasi, sotsiologiyasi va siyosatshunosligida mazkur ibora alohida ilmiy tushuncha sifatida rasmiylashtirib bo'lingan[3]. Jamiyat ishlaridagi ishtirok deganda kishilarning muayyan natijalarga erishish va manfaatlarni ro'yobga chiqarish maqsadida jamiyatning boshqa a'zolari bilan hamjihatlikda ijtimoiy,

siyosiy va madaniy jarayonlarga qatnashishi nazarda tutiladi. Jamiyat ishlarida ishtirok ikki shaklda amalga oshiriladi. Birinchidan, fuqarolik ishtiroki deb - insonning turli siyosiy, demokratik institutlar faoliyatiga, ommaviy-siyosiy tadbirlarga qatnashishiga aytiladi. Bunday ishtiroki, masalan, turli saylov va referendumlarda, siyosiy yoxud ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar muhokamasida, ommaviy tinglovlarda, mitinglarda qatnashish shaklida sodir bo'lishi mumkin. Undan farqli ravishda ijtimoiy ishtirok kishilarning kundalik turmushda amalga oshirilgan hamjihatlikdagi faoliyatini anglatadi. U rasmiy va norasmiy shaklga ega bo'ladi. Rasmiy ijtimoiy ishtirok kishilarning jamoat tashkilotlari faoliyatiga qatnashishida, norasmiy ijtimoiy ishtirok esa muayyan an'analarga rioya qilishda, umumxalq hasharlarida qatnashishda, o'zaro yordam va shu kabi amaliyotlarda namoyon bo'ladi[4].

Inson hayotiy faoliyatining yo'nalishlaridan biri uning maishiy turmushi bilan bog'liq. "Bunda insonning oddiy fiziologik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan kundalik hayot tarzi nazarda tutiladi. Bu hayot tarzi inson tasarrufidagi uy-joy, kiyim-kechak, ro'zg'or buyumlarini, shuningdek, uning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan hatti-harakatlarini o'z ichiga oladi" [5].

Maishiy turmush – inson turmush tarzining eng ahamiyatli tomonlaridan biridir. Uning shakli eng avvalo tabiiy shart-sharoitlardan kelib chiqadi. Inson istiqomat qilayotgan hududning geografik joylashuvi, iqlimi, tuprog'i holati, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi darajasi – bularning barchasi oxir-oqibatda inson maishiy turmushini belgilab beradi.

Inson hayotiy faoliyati haqida gapirganda uning kundalik odat va ko'nikmalari ham tilga olinadi. Binobarin, turmush tarzining muhim tomonini ana shu tushunchalar bilan ham bog'lamoq darkor. Odat deganda "ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining fe'l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o'z-o'zidan beixtiyor bajariladigan harakat" [5] nazarda tutiladi. Xar qanday hatti-harakat odat tusini olishi uchun muayyan muddat davomida ongsiz ravishda uzluksiz takrorlanmog'i va har safar insonda chuqur qoniqlik hosil qilmog'i darkor. Odatlarning ma'lum tizimi vaqt o'tishi bilan inson xulq-atvorining ajralmas qismi bo'lib qoladi, uning ijrosi esa ehtiyojga aylanadi. Inson turmushida turfa odatlar namoyon bo'ladi.

Ko'nikmalar ham inson turmush tarzining muhim tomonidir. Ko'nikma deganda biror harakatni ongli ravishda uzluksiz takrorlash natijasida hosil qilingan mahorat, malaka tushuniladi. Uning kundalik odatlardan asosiy farqi shundaki, ko'nikma inson tomonidan ongli ravishda shakllantiriladi.

Inson hayotiy faoliyati faqat ish vaqtda yoxud uning jamiyat ishlari bilan mashg'ul bo'lgan davrda emas, balki bo'sh vaqti mobaynida ham davom etadi. Aynan shu sababli inson turmush tarzi bo'sh vaqtdan foydalanish shakllariga qarab ham aniqlanadi. Bo'sh vaqt inson vaqt budjetining muhim tomonini tashkil etadi. Ma'lumki, vaqt budjeti inson ixtiyotidagi umumiy vaqt meyorini ifodalovchi tushunchadir. Odatda vaqt budjeti haqida gapirganda uning ish vaqti va ishdan tashqari vaqtga tasniflanishini qayd qiladilar. Biroq ishdan tashqari vaqtning ham o'z tarkibiy elementlari mavjud. Masalan, inson mehnatdan ozod bo'lgan paytini ro'zg'or yumushlari, bolalar tarbiyasi, fiziologik ehtiyojlarni qondirish, transportda harakatlanish va shu kabi boshqa hatti-harakatlar uchun sarf qilishi mumkin. Mutaxassislar insonning ish vaqtidan hamda sanab o'tilgan yumushlarga ketgan muddatdan ortib qolgan davrni bo'sh vaqt deb ataydilar[7].

Turmush tarzi yuqorida tilga olingan elementlarning murakkab kombinatsiyasidan tarkib topadi. Bu kombinatsiya tabiiy turmush tarzining xarakterini belgilab beradi. Agar tarkibiy elementlar umumiy holda ijobiy, pozitiv tabiatga ega bo'lsa, insonda sog'lom turmush tarzi qaror topadi. "Sog'lom turmush tarzi – inson hayoti va faoliyati sifatini oshirishning

muhim omili, uning o'z funksiyalarini to'laqonli bajarishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga zamin hozirlaydigan o'ziga xos asos, negizdir" [5]. Demak, insonda nosog'lom turmush tarzi shakllanishi tarkibiy elementlar umumiy holatiga bog'liq bo'ladi. nosog'lom turmush tarzi inson hayotini izdan chiqardi, turmushini boyitmad, hayotiy maqsad va vazifalarini samarali bajarishga xalal beradi. "Sog'lom turmush tarzi kishilarning salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan faoliyatdir" [8].

Xullas, turmush tarzi ancha murakkab tarkib va xarakterga ega. Ayni paytda turmush tarzini bir necha rakursda o'rganish va tasniflash mumkinligini ham e'tirof etib o'tmoq lozim. Jumladan, turli sivilizatsiyalarning inson hayotiy faoliyatiga ta'siri haqida gap ketganda odatda sharqona va g'arbona turmush tarzi tilga olinadi. Sharqona turmush tarzi deganda kishilarning Sharq qadriyatlari va jamoaviylik tamoyillariga asoslangan xulq-atvori va muomalasi nazarda tutiladi. Sharq va G'arb turmush tarzini tahlil qilganda g'arbona turmush tarzi norma va qadriyatlarga asoslanishini ko'rish mumkin. Individuallik tamoyillarining ustuvorligi G'arb turmush tarzining alohida xususiyatini ko'rsatadi.

Turli obyektlarga xos bo'lgan turmush tarzi mazmuni va dinamikasini o'rganib borishning ilmiy-nazariy ahamiyati katta, albatta. Bunday izlanishlar inson turmush tarzining o'zgarishi qonuniyatlarini aniqlash va anglab olish imkonini beradi. Biroq turmush tarzi bilan bog'liq tadqiqotlarning muhim amaliy jihatlarini ham mavjud:

ijtimoiy taraqqiyot darajasini; turmush tarzini o'rganish natijasida jamiyatning barcha sohalarini (siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy) rivojlanish darajasini aniqlash va baholash mumkin. Jamiyat a'zolarining turmushi optimal shaklda kechayotgan bo'lsa, bu holat ijtimoiy taraqqiyotning maqbul maqsadlarga yo'nalganligidan, uning to'g'ri yo'nalishda kechayotganidan dalolat beradi. Har qanday ijtimoiy taraqqiyot ham turmush tarziga oqilona tus beravermaydi. Aks holda, bugungi kunda taraqqiy topgan jamiyatlarda nuqul ijobiy turmush tarzlari hukm surgan bo'lardi. Oqilona va optimal xarakterga ega bo'lgan, sog'lom shaklda kechayotgan turmush tarzi faqat jamiyat a'zolari manfaatlariga mutanosib bo'lgan taraqqiyot shakli va maromi mahsulidir;

inson kapitali ahvolini; turmush tarzini o'rganish orqali jamiyat a'zolarining dunyoqarashiga, uning bilimlari va malakalari xarakteriga, ruhiy ahvoliga baho bersa bo'ladi. Agar turmush tarzi asosan ijobiy elementlardan tarkib topgan bo'lsa jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit qaror topadi. Bu esa jamiyatda madaniy saviya baland ekanligidan va kishilarning bunyodkorlik potentsiali farovonlik va yaratuvchanlikka yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Inson kapitali notavon ahvolda bo'lgan jamiyatlarda pozitiv turmush tarzining shakllanishi qiyin kechadi;

"inson-jamiyat" munosabatlari xarakterini; turmush tarzi insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini ayon etuvchi mezonidir. Jamiyat a'zolarining turmush tarzi ijtimoiy manfaatlariga mos bo'lsa, bu holat insonning o'zi istiqomat qilayotgan jamiyatdagi taraqqiyot maqsadlarini, milliy ehtiyoj va manfaatlarni anglab yetganidan va uni qabul qilganidan, milliy g'oya uning e'tiqodiga aylanganidan dalolat beradi. Kishilar turmush tarzi bilan ijtimoiy manfaatlar o'rnatidagi uzilishning mavjudligi, turmush tarzida ijtimoiy manfaatlar o'z ifodasini topmayotganligi odamlarning jamiyatga ishonchi pastligidan darakdir;

"jamiyat-inson" munosabatlari xarakterini; turmush tarzi jamiyatning insonga bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi mezonidir. Jamiyatda oqilona turmush tarzining keng ildiz otgani unda inson huquq va manfaatlar ustuvorligi ta'minlanganidan, fuqarolik jamiyati institutlari bu borada real

natijalarga erishganidan, turli ijtimoiy illatlarga qarshi amalda kurashilayotganidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi. Turmush tarzi – insonning individual yoxud jamoaviy hayotiy faoliyatining muayyan shaklini ifodalovchi tushunchadir. Inson hayotiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari mehnat jarayonida, jamiyat ishlarida ishtirok

etish chog'ida, maishiy turmushda, kundalik odat va ko'nikmalar asosida, bo'sh vaqtda amalga oshirilgan faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Inson, ijtimoiy guruh, tabaqa, sinf, millat turmush tarzi ana shu faoliyat turlarining muayyan konfiguratsiyalaridan tarkib topadi. Faoliyat turlarining ijobiy yoki salbiy, progressiv yoki regressiv xarakteri turmush tarzining pozitiv yoki negativ xarakterini belgilab beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Majidov M.A. Postmodern jamiyatda inson shaxsi transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy muammolari. Fals.f. bo'yicha fals.d. diss. avtoref. - Samarqand: SamDU, 2021.- B.14.
2. Arzikulov R.U. Sog'lom turmush tarzi asoslari. –Toshkent: 2005; Бегинин В. Социология образа жизни.- Саратов: Изд. Саратовского университета, 1993; Возмитель А. Образ жизни: концепция, сущность, динамика: Автореф. дисс. на соиск... докт.соц.н. -Москва: Институт соц. РАН, 2000; Jumanova F.U., Nazirova G.K. Maktab o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning psixologik–pedagogik omillari.// Academic research in educational sciences, 2021, vol. 2, №6.- P. 27-32.
3. Putnam, R., Bowling Alone. The Collapse and Revival of American Community. Simon and Schuster.- New York: 2000; van Deth, Jan. Private Groups and Public Life. Social Participation, Voluntary Associations, and Political Involvement in Representative Democracies.- London: Routledge, 1997; Warner W.K. Problems of participation// Journal of cooperative extension, 1965, № 4.- P. 219-228; де Токвиль А. Демократия в Америке / Пер. с фр.; Предисл. Гаролда Дж. Ласки.- Москва: Прогресс, 1992; Мерзляков А.А. Гражданское социальное участие как универсальная технология социального управления (на материалах разработки и реализации градостроительных проектов): Автореф. дис. ... канд. социол. наук. - Москва: 2007; Платонова Д.В. Социальная сущность и формы участия аудитории в деятельности СМИ: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Москва: 2007; Холмская М.Р. Политическое участие как объект исследования. Обзор отечественной литературы // Полис, 1999, № 3. - С. 170-176.
4. Скалабан И.А. Социальное, общественное и гражданское участие: к проблеме осмысления понятий.// Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология, 2011, №1. - 130-139-с.
5. Xudoyberdiyev D. Yoshlar iste'molchilik xulqi: mazmuni va shakllari, o'zgarishi sabablari va oqibatlar. - Qarshi: // Fan va ta'lim, 2021.- B.122-123.
6. Qoraboyev U. Odatnoma. - Toshkent: "O'zbekiston". 2016.- B.12.
7. Силко В. Е. Теоретико-методологические подходы к пониманию категории "свободное время". // Власть и управление на Востоке России. 2012, №3.- 143-с.
8. Salomova H.Y, Inoyatov A.SH, Salomova N.M. Ibn Sinoning tibbiy-imiy merosi.-Samarqand: SamDU. - B.123.